



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZINING BUYRUG‘I

21«fevral»2025 yil.

01/292-A/F-son

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan Xarid komissiyasi tarkibi hamda Xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan Xarid komissiyasi (bundan buyon matnda Xarid komissiyasi deb yuritiladi) tarkibi hamda Xarid komissiyasi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash maqsadida:

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 27-dekabrda 01/1939-A/F-sonli buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 01/185-A/F-sonli buyrug‘i ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) tovarlar (ish va xizmatlar) xaridini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga;

b) O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi)da davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha Xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga;

d) davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan taqdim qilinadigan ma’lumotnomani to‘ldirish qo‘llanmasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasi (M.Ismailov) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tovarlar (ish va xizmatlar)ning davlat xaridlarini tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan:

a) O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 9-fevraldagi “Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risida”gi 01/189-A/F-son buyrug‘i;

b) O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 17-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 9-fevraldagi 01/189-A/F-son buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 01/601-A/F-son buyrug‘i;

d) O‘zbekiston Respublikasi sport vazirining 2024-yil 25-iyundagi “Sport vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 01/1021-A/F-son buyrug‘i 14-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (S.Rasulova) ushbu buyruq bilan vazirlikning tegishli boshqarmasi va bo'limlarini tanishtirish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni oz zimmamda qoldiraman.

Vazir



A.Ikramov

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2025-yil _____-fevraldagi
_____ -A/F-sonli buyrug'iga
1-ilova

**Tovarlar (ish va xizmatlar)ni xaridini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
Xarid komissiyasi tarkibi***

T/r	Ismi va familiyasi		Lavozimi
1.	M.Ismailov		Sport vaziri o'rinbosari, komissiya raisi
2.	Sh.Momindjonov		Vazirning davlat tili bo'yicha maslahatchisi, komissiya raisi o'rinbosari
Komissiya a'zolari			
3.	M.Yunusov		Paralimpiya, qishki va noolimpiya sport turlari bo'limi boshlig'i
4.	F.Turdiev		Professional ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi boshlig'i
5.	Sh.Yeshnazarov		Ishlar bo'limi boshlig'i
6.	N.Shoymardonov		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi boshlig'i
7.	Mas'ul tarkibiy bo'linma mutaxassisi (bo'lim oshlig'i) **		Vazirlikning tashabbuskor tarkibiy bo'linma mutaxassisi (bo'lim boshlig'i)
8.	M.Odinayev		Ishlar bo'limi bosh mutaxassisi, komissiya kotibi***

Izoh:* Xarid komissiyasi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda ushbu buyruqqa o'zgartirish kiritilmasdan uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

** Amalga oshiriladigan xaridlarning tegishliligi bo'yicha tashabbuskor tarkibiy bo'linma mutaxassisi agar ular Xarid komissiyasi tarkibida bo'lsa, Davlat xaridi bo'yicha tashabbuskor bo'linmaning boshlig'i yoki boshliq o'rinbosarlari (yoki boshqa mutaxassislari) Xarid komissiyasining a'zosi hisoblanadi.

*** Komissiya kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2025-yil _____-fevraldagi
_____-A/F-sonli buyrug'iga
2-ilova

O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligida davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha Xarid komissiyasi to'g'risidagi nizom

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb yuritiladi) huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Xarid komissiyasini tuzish va davlat xaridlari tartib-taomillariga rioya etilishini tartibga soladi.

2-bob. Xarid komissiyasining maqsadi va vazifalari

2. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) xarid qilish hujjatlarini kelishadi;
- b) takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- d) takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
- e) takliflarning baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;
- f) zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;
- g) xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;
- h) dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- i) zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;
- j) zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- k) xarid qilish tartib-taomillarini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiradi;
- l) xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

3-bob. Xarid komissiyasini shakllantirish tartibi

4. Xarid komissiyasi to'g'ri shakllantirilishi uchun davlat buyurtmachisi mas'uldir.

5. Xarid komissiyasi xarid natijalari g'olibini va zaxiradagi g'olibni tanlash to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan kollegial organ hisoblanadi.

6. Xarid komissiyasi vazirlik huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadi hamda vazirlikning tegishli buyrug'i bilan shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

7. Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

8. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

9. Davlat xaridini eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) orqali amalga oshirish uchun vazirlikdan kamida beshi nafar a'zodan iborat tarkibda Xarid komissiyasi tuziladi.

10. Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun vazirlikdan kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda Xarid komissiyasi tuziladi.

11. Xarid qilish loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda Xarid komissiyasi vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

4-bob. Xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish

12. Vazirlik tanlash (tender) hujjatlarini ko'rib chiqish uchun tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha Xarid komissiyasiga kiritadi.

13. Xarid komissiyasi o'z majlislarida tanlash (tender) hujjatlarini qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni:

a) takliflar qabul qilinadigan muddatlarini;

b) takliflarni baholash mezonlarini;

d) taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi.

14. Tanlash (tender) hujjatlari Xarid komissiyasi tomonidan kelishilgandan so'ng tanlashni (tender) o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi va tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini elektron raqamli imzo (bundan buyon matnda ERI deb yuritiladi) bilan tasdiqlaydi.

15. Tanlash (tender) hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng, Xarid komissiyasi tomonidan tanlash (tender) hujjatlari qayta ko'rib chiqiladi va tuzatishlar kiritadi.

16. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida qabul qilingan qarorlar bayon bilan rasmiylashtiriladi va yig'ilishda ishtirok etayotgan barcha a'zolar tomonidan imzolanadi, hamda Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Vazirlik Xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan tanlash (tender) hujjatlarini o'zining imzosi va muhri bilan tasdiqlaydi.

18. Zarur hollarda vazirlik Xarid komissiyasi qarori asosida takliflarni berish muddatini uzaytirishga, shuningdek, ishtirokchilarga ularning takliflarini amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilishi mumkin.

19. Agar takliflar berish muddati tugagan paytda Xarid komissiyasi tomonidan tanlash (tender) ishtirokchilaridan tanlash (tender) hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olingan bo'lsa, tanlash (tender) o'tkazilgan deb topiladi.

20. Tovarga (ishga, xizmatga) nisbatan baholash shartlari, mezonlari va talablarni o'zgartirish zarurati paydo bo'lganda Xarid komissiyasi asoslarni keltirgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

21. Tanlash (tender) elektron shaklda o'tkaziladi.

22. Tanlash (tender) ishtirokchilar takliflari elektron shaklda taqdim etiladi.

23. Tanlash (tender) takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular ishtirokchilar, shuningdek, Xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

24. Tanlash (tender) ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tanlash (tender) taklifini berishga haqli.

25. Tanlash (tender) Xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash (tender) takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

26. Agar tanlash (tender) taklifi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining va tanlash (tender) bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash (tender) taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha Xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan Xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, kotib tomonidan ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Tanlash g'olibini aniqlash uchun tanlash takliflarini baholash tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

27. Tanlash (tender) bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

a) tanlash (tender) taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

b) tanlash (tender) takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda (tender) ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Tanlash takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Tanlash takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, texnik qismi bo'yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

28. Tanlash (tender) takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha Xarid komissiyasi a'zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolanadi.

29. Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash (tender) g'olibini aniqlaydi va tanlash (tender) o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

30. Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash (tender) bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.

31. Tanlashni o'tkazishda har bir majlis va qabul qilingan qaror bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Bayonnoma vazirlik tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuni ichida joylashtirilishi kerak.

Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash (tender) o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, vazirlik va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash (tender) ishtirokchilari tomonidan tanlash (tender) o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, Xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

32. Vazirlik tomonidan Xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

33. Tanlash (tender) natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

5-bob. Xarid komissiyasi huquq va majburiyatlari

34. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

35 Xarid komissiyasining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

a) o'z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

b) odob-axloq qoidalariga rioya etish;

d) g'olib (g'oliblarni) aniqlanmagunicha davlat xaridi ishtirokchilari bilan buyurtmanomalar yuzasidan muzokaralar o'tkazmaslik;

e) xarid qilish tartib-taomillari davomida ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etmaslik;

f) davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga ya'ni:

kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik;

asoslanganlik;

moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

raqobat va xolislik;

mutanosiblik;

barqarorlik;

davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;

korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsiplariga rioya etish.

Xarid komissiyasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

36. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) taqdim etilgan taklif ichida tegishli hujjatlar mavjud bo'lmaganida ushbu taklifni ko'rib chiqilishiga va baholanishiga yo'l qo'ymaslik;

b) davlat xaridlariga oid qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ishtirokchini tanlashdan (tender) chetlatish;

d) zarurat bo'lganida davlat xaridlariga oid qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vazirlik rahbariyatiga ekspertlarni (ekspert tashkilotlarni) jalb etish taklifi bilan murojaat qilish;

Xarid komissiyasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

6-bob. Xarid komissiyasi ish reglamenti

37. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u Xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek Xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo'qligida uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

38. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

39. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

a) biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash (tender) taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi;

b) tanlash (tender) taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun Xarid komissiyasiga kiritadi;

d) davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash (tender) taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi.

40. Xarid komissiyasining har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

41. Xarid komissiyasining majlisi o'tkazilishi uchun Xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining yarimidan ko'pi ishtirok etishi zarur.

42. Qaror Xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

43. Xarid komissiyalari a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, Xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

44. Agar Xarid komissiyasiga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

45. Agar Xarid komissiyasiga tegishli masala bo'yicha ovoz bergan mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

46. Xarid komissiyasi uning a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) shakllanganda vakolatli hisoblandi.

7-bob. Xarid komissiyasi a'zolarining javobgarligi

47. Xarid komissiyasi a'zolarining davlat xaridlarini o'tkazish uchun Odob-axloq qoidalarida kasbga doir va xizmatdan tashqari faoliyatda odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalari, kasbiy tayyorgarlikka doir yagona talablar belgilanadi.

48. Xarid komissiyasi a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak.

49. Xarid komissiyasining a'zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

50. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

51. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

52. Xarid komissiyasi a'zolari mazkur Nizomni buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

53. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

54. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan Xarid komissiyasi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

55. Mazkur nizom bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlariga binoan hal etiladi.

56. Amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan Ushbu nizomda belgilanganidan boshqacha qoidalar qabul qilingan taqdirda qonunchilik hujjatlarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2025-yil _____-fevraldagi
_____-A/F-sonli buyrug'iga
3-ilova

**Davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan vazirlikning tarkibiy
bo'linmalari tomonidan taqdim qilinadigan ma'lumotnomani to'ldirish
QO'LLANMA***

1. Mazkur ma'lumotnoma davlat xaridini amalga oshirishga ko'rsatma beruvchi bildirishnoma yoki tegishli tadbirni o'tkazish uchun chiqarilgan buyruq bilan tasdiqlangan smeta asosida aniq va ravshan to'ldiriladi.

2. Tovar (ish va xizmatlar)ning texnik tafsilotlarida ular haqidagi umumiy ma'lumotlardan tashqari aynan nazarda tutilayotgan mahsulot yoki xizmatning alohida belgilari (brend nomi ko'rsatilmagan holda) ko'rsatilishi lozim. Bunda, tovarlarning o'lchamlari, vazni, texnik imkoniyatlari ko'rsatiladi. Shuningdek, ish va xizmatlarning texnik tafsilotlarida xizmat ko'rsatiladigan joy, ko'rsatiladigan xizmatning aniq tartibi, xizmat ko'rsatuvchiga qo'yiladigan alohida talablar ko'rsatiladi.

3. Mazkur ma'lumotnoma:

ish va xizmatlarning qiymati BHMning 50 barobaridan (elektron do'kon va milliy do'kon) oshmasa 10 kun avval taqdim qilinishi;

tovarning qiymati BHMning 6 000 baravarigacha (elektron do'kon, milliy do'kon yoki auksion) bo'lsa 15 kun avval taqdim qilinishi;

tovar (ish va xizmatlar)ning qiymati BHMning 6 000 baravarigacha (eng yaxshi takliflarni tanlab olish) bo'lsa 20 kun avval taqdim qilinishi lozim.

4. Ma'lumotnoma yozma (tasdiqlangan) va elektron (MS EXCEL) shaklda quyida keltirilgan namuna asosida taqdim qilinadi.

*Izoh:**markazlashtirilgan tadbirlar, markazlashgan xarajatlar, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa tegishli mablag'lar hisoblaridan

**“_____” bo‘lim (boshqarmasi) tomonidan
o‘tkaziladigan tadbir munosabati bilan xarid qilinishi rejalashtirilgan tovar,
ish va xizmatlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Tadbir nomi:

Buyruq raqami va sanasi:

T/r	Tovar, ish va xizmatlar nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Tovar, ish va xizmatlar texnik tafsilotlari
1				
2				
...				

Bo‘lim (boshqarma) boshlig‘i

F.I.SH.